

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
3. Will personalized e-learning increase deep learning in higher education? S.Manzanares, M.C.Garcia Osorio, C.I.Diez Pastor, J.F.Martin Anton. 47 (1) 53-63 pages

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Karimova N.R., University of Business and Science NOTM dotsenti

Аннотация. Ушбу мақолада талим тизимида ахборот технологияларини қўллашнинг илмий-педагогик масалалари, компьютер телекоммуникацияларининг қўлланилиш тажрибалари, талим жараёнида ахборот технологияларини қўллашда талабаларни фақатгина экрандаги ахборотларни кўришига ва уларни қабул қилишгагина эмас, балки уларнинг ўзлари ҳам бу жараёнда ижодий иштирок этиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: талим жараёни, педагогик технологиялар, ахборот технологиялар, талим тизими, шахсиятни ривожлантириш, ахборот маданият, компьютер саводхонлиги, талимнинг ишончлилиги, мультимедиа воситалар.

Mamlakatimiz kelajagi, uning taraqqiyoti, dunyo hamjamiyatidagi o'rne shubhasiz voyaga yetayotgan barkamol yosh avlodning taqdiri bilan bog'liqdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, yosh avlodga jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, yetuk inson bo'lib shakllanishi, qobiliyat va iqtidorini yuzaga chiqarish asosiy maqsad qilib belgilab olindi. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1533-sonli Qarorining chiqishi ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini yanada kengroq tatbiq etish jarayonini jadallashtirish vazifasi qo'yildi. Qarorda qo'yilgan vazifalarning ijrosi sifatida oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini yaxshilash kunning talabi bo'lib qoldi.

Ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlar samaradorligini oshirish maqsadida, ularni innovatsion va mul'timedia texnologiyalar foydalanib o'tish yo'lga qo'yilmoqda. Bunda talabalarning bilim olish darajasi oshishi kafolatlanadiki, shu nuqtai nazardan, bunga maktabdan to oliy ta'lim muassasalarigacha katta etibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayoni rivojiga bir nazar tashlasak, bugungi kunda kompyuter telekommunikatsiyalari yordamida qanchalik muhim pedagogik masalalarning yechimi topilayotganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib qoldi. Avvallarite levizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor va boshqalar bajargan funktsiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o'z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi. Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir.

Hozirgi kunda kompyuterlar ta'lim tizimida asosan to'rt yo'nalishda:

o'rganish obekti sifatida;
o'qitishning texnik vositalari sifatida;
ta'limni boshqarishda;
ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonida kompyuterlar asosan to'rt tartibda:

passiv qo'llash – kompyuter oddiy hisoblagich kabi;

reaktiv muloqat – kompyuter imtihon oluvchi sifatida;

faol muloqat – kompyuter talabaga yo'l – yo'riq berish va imtihon olishda;

interfaol muloqat – kompyuter suniy intellekt sifatida, yani talaba bilan muloqat qilishda foydalaniladi.

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

fan sohalarini axborotlashtirishni;

o'quv faoliyatni intellektuallashtirishni;

integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;

ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Hozirgi kunga kelib respublikamizda ta'lim jarayonining deyarli barcha bo'g'inlarida va fan sohalarida kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari vositalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yildi. Axborotlashtirish ta'lim olish jarayoniga chuqur kirib bormoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'zlashtirish tezligini oshirish, keng bilimlar omboridan axborotlarni qabul qilish, bu bilimlarni chuqur o'rganish va o'zlashtirish imkonini bermoqda.

Bizga malumki, ta'limda axborot texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni ta'lim oluvchiga kompyuter texnikasi va dasturiy vositalar yordamida uzatish jarayonidir. Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilish jarayonida o'quv axborotini uzatishda ishtirok etuvchi ikkita komponenta mavjud: texnik vositalar (kompyuter texnikasi va aloqa vositalari) va har xil maqsadlarda yaratilgan dasturiy vositalar.

Darsga tayyorgarlik va dars jarayonida kompyuterdan unumli foydalanishi uchun o'qituvchi bu komponentalarning funktsional imkoniyatlari va qo'llanilish shartlarini juda yaxshi bilishi lozim, chunki ham texnik va ham dasturiy vositalar o'ziga xos xususiyatlarga va o'quv jarayoniga tasirga ega. Buni tushunish uchun dars jarayonida kompyuter texnikasi nima uchun qo'llaniladi va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib qanday uslubiy masalalar yechiladi, degan savolga javob berishimiz lozim.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari quyidagilar:

shaxsiyatni rivojlantirish (tafakkur; estetik tarbiya; tajribatadqiqot faoliyatini olib borishni rivojlantirish;

axborot madaniyatini shakllantirish;

aniq bir sohaning mutaxassislarini tayyorlashda foydalanuvchining

umumiy axborot tayyorgarligi («kompyuter savodxonligi»)dan iborat ijtimoiy buyurtmani bajarish;

o'quv-tarbiya jarayoni unumdorligini, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, bilish va o'rganish faoliyatining muhim jihatlarini taminlash, axborot va fanning integratsiyasi hisobiga fanlararo bog'liqlikni chuqurlashtirish.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Ta'limning

didaktik xossalari bilan bog'langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita kompyuter telekommunikatsiyalari bilan bog'lash bu ta'lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega. Didaktik funktsiya sifatida biz o'quv-tarbiyaviy jarayonda malum bir maqsadlarda qo'llanilayotgan ta'lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz. Bu ularning o'quv jarayonidagi foydalanish vazifalari, tutgan o'rni va ahamiyatidan iborat. Ta'limning dasturiy vositalari esa tizimda keng qamrovli amaliy tajribalar va imkoniyatlar eshigini ochib beradi, bular:

o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar (Virtual borliq tizimlari).

Virtual borliq (Virtual'naya real'nost') tushunchasini Jaron Lanier (Lan'e) taklif etgan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq. Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni qabul qilamiz. Interfaollikni taminlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko'pmodalikka, yani ko'z bilan ko'radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo'lishi kerak.

Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, katta hajmli tovush va videotizimlari, shuningdek odamning bosh qismiga o'rnatiladigan shlem va ko'zoynak displeylar, "hid sezadigan" sichqonchalar, boshqaruvchi qo'lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlatiladi.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning ananaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud, bular: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini taminlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligiga asoslangan bo'lib, kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalari yordamida olingan bilim uzoq vaqt xotirada qoladi va keyinchalik ularni amaliyotda qo'llash uchun qisqa vaqt ichida takrorlash bilan uni tiklash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begimkulov U.S. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2007.

2. Qodirov B.G., Begimkulov U.Sh., Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari. Elektron darslik. – 2002.

3. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: 2000 y